

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti
rektori G.I.Muxamedov**

«_____» _____ 2025 yil

**13.00.01–PEDAGOGIKA NAZARIYASI. PEDAGOGIK TA’LIMOTLAR
TARIXI IXTISOSLIGI BO‘YICHA OLIY TA’LIMDAN
KEYINGI TA’LIM INSTITUTIGA KIRISH UCHUN IXTISOSLIK
FANIDAN DASTUR**

Chirchiq – 2025

“Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi” fani bo’yicha DASTUR

Kirish

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimi tubdan isloh qilindi. Xususan, pedagogik kadrlar tayyorlashning yangi mazmun va shakllari yaratilib, uzluksiz ta’limning barcha bosqichlarida sifat va samaradorlikni oshirishga katta e’tibor qaratildi. 2020 yilda yangi tahrirda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun hamda “2020–2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Ta’lim sohasidagi strategiyasi” zamonaviy pedagogika fanini shakllantirishda asosiy huquqiy-me’yoriy manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, “Yangi O‘zbekiston – yangi ta’lim” tamoyiliga asoslangan holda ta’lim jarayoniga ilg‘or xorijiy tajribalar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion yondashuvlar keng joriy etilmoqda.

“Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi” fani pedagogik tafakkurni shakllantirish, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy-axloqiy tarbiyani yo‘lga qo‘yish, pedagogik merosni chuqur o‘rganish hamda uni zamonaviy amaliyot bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Fan doirasida o‘quvchi-talabalar qadimiy va zamonaviy pedagogik g‘oyalarni tahlil qilish, ilg‘or pedagoglarning ta’limiy-konsepsiyalarini o‘rganish, shuningdek, ta’lim qonuniyatlarini anglab, mustaqil pedagogik faoliyat yuritish ko‘nikmalarini hosil qiladilar. Mazkur fan pedagogik madaniyatni yuksaltirish, innovatsion fikrlaydigan, kasbiy etikaga ega bo‘lgan, ma’naviy yetuk pedagoglarni tayyorlashda muhim nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Pedagogika tarixi talabgorning umumpedagogik bilim darajasini, pedagogik merosimizga hurmat bilan munosabatda bo‘lishini aniqlaydi. Ta’lim va tarbiya nazariyasi va amaliyoti, tarbiya va ta’lim, uning rivojlanish jarayoni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va har bir tarixiy bosqichda ilmiy bilimlar darajasi bilan bog‘liqligi to‘g‘risida aniq tasavvur hosil qiladi. Bunda pedagogikaning ijtimoiy taraqqiyot talabiga javob berganligi, ilmiy taraqqiyot bir butun tarbiya nazariyasi va amaliyot ekani hisobga olingan. Ta’lim amaliyoti, shuningdek, ta’limdagi yutuqlarning muhimligi ham nazarda tutiladi. U yoki bu pedagogik konsepsiyalar, ta’limotlarni tavsiflaganda shu ta’limotlar ijodkorining hayoti va faoliyatidagi eng muhim voqealarni asos qilib olish nazarda tutilgan.

Dastur pedagogika tarixini kishilik jamiyatining taraqqiyoti tarixi bilan uzviy aloqada bayon etishga mo‘ljallangan. Pedagogik fikr rivojlanishini izchil o‘rganish bo‘lajak mutaxassislarga hozirgi davrda o‘tmishning ilg‘or pedagogikasining uzviy davomi ekanligini ko‘rsatish kelajak maorif va pedagogika taraqqiyoti yo‘nalishlarini anglab olishga yordam beradi.

“Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi” fanining maqsad va vazifalari:

- talabgorlarni zamonaviy pedagogika fanining nazariy asoslari bilan qurollantirish;
- “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun”ni amalga oshirish sharoitida ularda ta’lim

samaradorligini oshirish uchun zarur ko'nikmalarni hosil qilish;

- pedagogik tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish;
- pedagogik fikrlash qobiliyatini tarkib toptirish;
- “Ta’limning pedagogik qonuniyatlari hamda tamoyillari”ga mos holda tegishli qarorlar qabul qilish;

– Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Yan Amos Komenskiy, K.D. Ushinskiy va boshqa mutafakkirlarning ta’limiy-axloqiy, umumbashariy qadriyatlarini, “Qur’oni Karim” va “Hadisi Sharif”da hamda mamlakatimizning birinchi prezidenti I.A. Karimovning nutqlaridagi umuminsoniy va ma’naviy-axloqiy tamoyillarni bilish;

– hozirgi zamon ta’lim texnologiyalarini bilish hamda ularni amaliyotda qo’llay olishdan iboratdir.

“Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi” fanidan bilim va ko’nikmalarga qo’yiladigan talablar

“Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi” o’quv fanini o’rganish jarayonida quyidagi pedagogik tushunchalarni **bilish va ko’nikmalarga ega bo’lish** zarur:

– ta’lim-tarbiya ishlarini mustaqillik g’oyalaridan monand hamda pedagogik qonuniyatlari va tamoyillarga uyg’un holda o’tkazish;

– pedagogik faoliyatni rejalashtirishda istiqbolni ko’zlab maqsad, vazifalarni belgilash;

– amaliyotda o’qitish hamda ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning asosiy shakllarini qo’llash;

– amaliyotda o’qitish va ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning qulay metod va vositalarini qo’llash, ma’lum vaziyatlarda ulardan to’g’ri foydalanish;

– ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar, shuningdek, Sharq va G’arbning ilg’or pedagogik tajribalaridan foydalangan holda tashkil etish;

– o’z oldiga qo’ygan vazifalarni to’g’ri bajarilishini ta’minlash;

– shaxs faoliyati va xulqini rag’batlantirib borish;

– pedagogik vaziyatlar, ta’lim va tarbiya natijalarini tahlil eta olish, jamoani o’rganish; o’zlashtirmaslik sabablarini, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun samarali tadbirlarni belgilash;

– o’z bilimini oshirib borish, amaliyotda pedagogika fani yutuqlari, ilg’or tajribalaridan foydalanish, qulay pedagogik tadqiqotlar o’tkazish, pedagogik faoliyatida yuzakichilik va bir qolipda ishlashga yo’l qo’ymay, ishga ijobiy munosabatni namoyon etish;

– guruh rahbarligi va tarbiyachi-murabbiy vazifalarining samaradorligiga erishish, ota-onalar, mahalla, jamoatchilik bilan o’zini o’zi boshqarishni tashkil etish.

Talabgor “Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi” fanini o’rganish davomida zamonaviy ta’lim texnologiyasi, kompyuter, axborot texnologiyasi, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, pedagogik mazmundagi amaliy, ilmiy tadqiqot topshiriqlarini bajara olishini namoyon eta olishlari zarur.

Dasturda “Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi”dan konsultatsiyalar 32 soatga mo’ljallangan.

Konsultatsiyalarda dasturning mazmuniga kiritilgan ayrim mavzular muhokama etiladi, munozaralar o’tkaziladi, talabgorlarning axborotlari eshitiladi.

Talabgorning umumiy pedagogika, pedagogika va ta’lim tarixi fanlaridan o’rganilishi zarur bo’lgan minimum bilimlar mazmuni:

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida modernizatsiya jarayonlari

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimidagi islohotlar. O‘zbekiston Respublikasit Xalq ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi hujjatlari. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimi. Ta’limning asosiy prinsiplari. Pedagogik faoliyat bilan shug’ullanish huquqi.

Ta’lim turlari. Maktabgacha ta’lim. Umumiy o’rta va o’rta maxsus ta’lim. Professional ta’lim. Oliy ta’lim. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash. Maktabdan tashqari ta’lim. Dual ta’lim, inklyuziv ta’lim, masofasiy ta’lim. Ta’lim muassasalarining funksiyalari.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim muassasalarining o‘zaro integratsiyasi va istiqbollari.

Pedagogika fani va uning jamiyatda tutgan o’rni haqida.

Pedagoglik kasbi. Pedagoglik kasbining paydo bo’lishi va ravnaq topishi. Sharq mutafakkirlari (al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqalar) va G’arb pedagoglari jamiyatda pedagoglik kasbining tutgan o’rni haqida.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A. Karimov demokratik-huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurishda, barkamol shaxsni shakllantirishda tutgan o’rni haqida. 2020 yilda yangi tahrirda qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun hamda “2020–2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Ta’lim sohasidagi strategiyasi” zamonaviy pedagogika fanini shakllantirishda o’qituvchi-murabbiyning o’ziga xos fazilatlari, ilmiy dunyoqarashi va insonparvarligi. Uning ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazari, barkamol avlod tarbiyasi uchun o’qituvchi-murabbiyning jamiyat oldidagi mas’uliyati, uning kasbiy bilim va ko’nikmalari. Pedagog iste’dodi va qobiliyati. O’qituvchi-murabbiyning pedagoglik axloq-odobi va nazokati, uning o’quvchilar, ota-onalar va hamkasblari bilan muloqoti.

Pedagogik mahoratni egallash yo’llari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Yan Amos Komenskiy, Lev Nikolaevich Tolstoy, Abdulla Avloniy, Shakuriy va Behbudiy kabi buyuk shaxslarning ilmiy salohiyati va pedagogik madaniyati. Ularning pedagogika fani va ta’limning rivojiga qo’shgan hissasi.

Pedagogika fan sifatida. Uning predmeti, maqsad, vazifa hamda kategoriyalari. Pedagogik tadqiqot metodlari.

Pedagogika ijtimoiy fan sifatida. Uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'рни, rivojlanish bosqichlari va ilmiy-nazariy, amaliy istiqbolni belgilash vazifalari.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari va tushunchalari tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), ma'lumot, bilim, ko'nikma va malakalar, rivojlanish.

Pedagogika fanining tuzilishi. Pedagogika fanining tarmoqlari. Pedagogikaning falsafa, sotsiologiya, psixologiya, fiziologiya, meditsina va boshqa insonshunoslik fanlari bilan aloqasi. Pedagogika fanlari tizimi.

Asosiy pedagogik jarayonlar va ularning bir butunligi, pedagogik jarayonlarni tadqiq qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Ilmiy pedagogik tadqiqotlarning nazariy va amaliy jihatlari.

Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari va ularning tavsifi. Nazariy tadqiqot metodlarining qiyosiy-tarixiy tahlili, qiyosiy taqqoslash, umumlashtirish, modellashtirish va boshqalar. Amaliy tadqiqot metodlari ilmiy kuzatish, suhbat, intervyu, so'rovnoma, test, reyting, statistik tahlil, hujjatlar tahlili, ilmiy tajriba, ilmiy tajriba sinovi (tabiiy, laboratoriya, amaliy va boshqalar). Tajriba-sinov ishlari va ularni kuzatish metodikasi.

Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi.

Pedagogik antropologiya. Shaxs haqida tushuncha. Individ – shaxs, shaxsning o'ziga xosligi. Individ, shaxs, individuallik. Shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari. Shaxs rivojlanishining biologik va ijtimoiy asoslari hamda jihatlari. Shaxs rivojlanishi va tarbiyasining o'zaro uyg'unligi.

Tarbiya jarayonining mohiyati, maqsad va vazifalari.

Tarbiya jarayonining mohiyati, mazmuni. Tarbiya jarayonining maqsadi. Tarbiya turlari. Tarbiya, o'z-o'zini tarbiyalash, qayta tarbiyalash tushunchalari. Tarbiya jarayonida tarbiyachi shaxsi.

Hozirgi demokratik jamiyatda har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikr yuritadigan erkin shaxsni shakllantirish tarbiya maqsadi sifatida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-ahloqiy ildizlari haqida. Uzlaksiz tarbiya konsepsiyasi. Tarbiya vazifalari orqali shaxsni barkamol shakllantirish.

Tarbiya jarayoni qonuniyatlari va prinsiplari.

Tarbiya jarayoni tuzilishi hamda uning qonuniyatlari. Tarbiya qonuniyatlari tarbiya jarayonining mohiyati sifatida. Ijtimoiy sharoitlarga bog'liqligi qonuniyati. Inson tabiati bilan bog'liqligi qonuniyati. Tarbiya jarayonidagi sharoit bilan bog'liqligi qonuniyati. Tarbiya, ta'lim va shaxsni rivojlanish jarayonlarining o'zaro bog'liqligi.

Tarbiya jarayonining metodlari va vositalari.

Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Tarbiya metodlarining maqsadi, prinsiplari, mazmuni va o'quvchilarning yosh, o'ziga xos xususiyatlari, tarbiyalanganlik darajasiga bog'liqligi.

O'zbek halqi pedagogikasida tarbiya metodlari. Tarbiya metodlari klassifikatsiyasi. Tarbiyada ibrat-namunaning tutgan o'рни. Ishontirish metodlari, hikoya, munozara suhbat, ma'ruza va boshqalar.

O'quvchilar jamoasi – yaxlit pedagogik jarayonining asosiy shakli.

Mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirish ta'lim va kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy maqsadi sifatida.

Jamoa haqida tushuncha. Sharq mutafakkirlari jamoa va uning shaxsga ta'siri to'g'risida. Jamoaning pedagogik vazifalari. Jamoaning turlari. Bolalar va yoshlar jamoasining belgilari va tuzilishlari.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va o'quvchilarni aqliy tarbiyasi.

Ilmiy dunyoqarash, tafakkur va milliy mafkurani shakllantirish o'quv-tarbiya jarayoni maqsadi sifatida. Aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari va mohiyati. Ilg'or ilmiy dunyoqarashning asosiy tarkibiy qismlari: ilmiy qarash, e'tiqod, ilmiy tafakkur.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Prezident Sh.Mirziyoyev asarlarida yoshlarning aqliy kamoloti, tafakkur va ilmiy dunyoqarashiga qo'yilgan talablar.

Ma'naviy-ahloqiy tarbiya va uning mazmuni.

Axlok - ijtimoiy ong, ta'sir ko'rsatish va tarbiyalash shakli sifatida. Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Beruniy, ibn Sino, Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalar) ning ma'naviy-ahloqiy g'oyalari va ularni hozirgi kunda shaxsni ma'naviy-ahloqiy kamol toptirish va shakllantirishdagi ahamiyati.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida shaxsni ma'naviy-ahloqiy rivojlantirish va shakllantirishning asosiy prinsiplari: umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi, vatanparvarlik.

Shaxsni shakllantirishda fuqarolik va huquqiy tarbiya.

Fuqarolik tarbiyasining mazmuni va vazifalari. O'zRsi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi yangi Qonun va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev asarlarida yoshlarning fuqarolik tarbiyasi. Fuqarolik tarbiyasida davlat ramzlaridan foydalanish. Fuqarolik tarbiyasining umuminsoniy jihatlari: tinchlikni saqlash, ekologik muammolar, iqtisodiy, ilmiy. madaniy hamkorlik.

Mehnat va iqtisod tarbiyasi.

Shaxsning kamol toptirish jarayonida mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalari. Sharq mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida. Mehnat qilish ongining bosh vazifasi odamlarda ongli mehnatkash, mulkdorlik psixologiyasini shakllantirish.

Jismoniy tarbiya va nafosat tarbiyasining mazmuni va metodlari.

Shaxsning har tomonlama kamol topishida jismoniy tarbiyaning o'rni va vazifalari haqida. Jismoniy tarbiya konsepsiyasi. Sharq mutafakkirlari jismoniy tarbiya haqida. O'quvchi – yoshlarni jismoniy tarbiyalashning kompleks dasturi.

Tarbiya jarayonini tashxis etish.

Shaxsni tarbiyalanganligini tashxis etishning mazmuni. Tarbiyalanganlikni aniqlash mezonlari. Xususi va umumiy mezonlar. Tarbiyalanganlik darajasini aniqlashda tarbiyachi shaxsining o'rni. Shaxsda ahloqiy sifatlarning shakllanishi. Shaxsda mehnatga bo'lgan ijobiy munosabatning shakllanishi. Shaxsning xulqi.

Oilada tarbiya asoslari.

Jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida oila tarbiyasining konseptual asoslari. Oila va uning tarbiyaviy vazifalari. Oilaning hozirgi davrdagi muammolari. Oila a'zolarining ahloqiy munosabatlari. Oila tarbiyasining huquqiy asoslari. "Oila" ilmiy-amaliy markazining vazifalari va faoliyatining mazmuni. "Maktab, oila va jamoatchilik" konsepsiyasining asosiy yo'nalishlarida ta'lim muassasalari, oila va jamoatchilikning aloqadorligi.

Ijtimoiy pedagogika asoslari.

Ijtimoiy pedagogikaning predmeti. Ijtimoiy pedagogika kategoriyalari va prinsiplari. Ijtimoiy pedagogik g'oyalarning Markaziy Osiyo, Rossiya va G'arbdagi tarixi.

Oila fuqarolik jamiyati institutining asosiy bo'g'ini. Oila va mahalla - milliy hamda umuminsoniy tarbiyaning muhim institutlari sifatida. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash. Oila pedagogikasining metodologik asoslari. Oila - pedagogik o'zaro munosabatlar va shaxs tarbiyasi va kamolotining sub'ekti sifatida. Oiladagi tarbiyaviy vazifalar.

Oila va bolalar, ota-onasiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy pedagogik faoliyat. Deviatziya ijtimoiy pedagogik muammo sifatida. Deviantlik xulqi – alkogolizm va giyohvandlik vujudga kelish shakli sifatida. Delinkventlik – jinoyatchilikni vujudga kelish shakli sifatida. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish.

Didaktika - ta'lim nazariyasi sifatida. Ta'lim paradigmalari.

Ta'lim va o'qitish nazariyasi (didaktika) - pedagogika fanining tarkibiy qismi hamda ma'lumotli bo'lish - ma'naviy-amaliy faoliyat jarayoni sifatida. Uning jamiyatda tutgan o'rnini. Didaktikaning vazifalari va ahamiyati, asosiy tushunchalari. Hozirgi davr didaktika rivojlanishining asosiy yo'nalishlari (konsepsiyasi). Uzlaksiz ta'lim konsepsiyasi. O'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi konsepsiyasi. Rivojlanuvchi va tarbiyalovchi ta'lim konsepsiyasi. Uni hozirgi davr pedagogikasida amalga oshirishga turlicha yondashuvlar. O'quv jarayonini "texnologiyalashtirish" konsepsiyasi. Uning ijobiy va salbiy tomonlari. Hozirgi davr didaktikasi tizimlari (an'anaviy va "zamonaviy"). Hozirgi davr pedagogikasida ta'lim paradigmalari an'anaviy-konservativ, ilmiy, insonparvarlashgan (mantiqiy), ratsionalistik (bixevioristik), texnokratik, ezoterik. Zamonaviy didaktik tizimlar to'g'risida tushuncha.

Ta'lim jarayoni yagona tizim sifatida. Ta'lim tamoyillari.

Ta'lim jarayoni mohiyati. Ta'lim jarayonining yagona tizim sifatidagi tasnifi.

Ta'lim - borliqni bilishning o'ziga xos shakli sifatida. O'qitish va o'qish jarayonlari tavsifi, ularning ta'lim jarayonidagi o'zaro aloqasi. Sharq (al-Forobiy, Beruniy, ibn Sino) va G'arb mutafakkirlarining gneseologik g'oyalari (qarashlari) ta'lim jarayonining asosi sifatida. Ta'lim jarayonida o'zaro aloqa va bolalarning rivojlanishi. O'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarining birligi. O'quvchi-yoshlarning o'quv faoliyati va uning tuzilishi. Tarbiyalanuvchilarning reproduktiv va ijodiy bilish faoliyati. Bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikma va malakalar jarayoni hamda shaxsning rivojlanishi. Ta'lim jarayonini tashkil qilishda tarbiyachilar yo'l qo'yadigan xatolar va ularning oldini olish.

Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari. Ularning psixologik va fiziologik asoslovi. Sharq mutafakkirlari ta'lim tamoyillari haqida.

Ta'lim metodlari va vositalari.

Ta'lim metodlari va usullari haqida tushuncha. Hozirgi zamon didaktikasi va xususi metodikasida ta'lim metodlarini tavsiflashga turlicha yondashuvlar. Ayrim ta'lim metodlarining tavsifi. Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Xorazmiy, Beruniy, ibn Sino va boshqalar) ta'lim metodlari haqida. Turli yosh guruhlarida ta'lim metodlarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari.

Ta'lim mazmunining o'ziga xos xususiyatlari va o'quvchilarning bilish faoliyati, rivojlanish darajasiga ko'ra ta'lim metodlarini faollashtirish yo'llari. Ta'lim metodlarini takomillashtirish. Pedagogika tajribasida ta'lim metodlari samaradorligini oshirish yo'llari.

Ta'limning texnikaviy vositalari, kompyuterlar va turli audiovidual vositalardan foydalanish imkoniyatlari.

Ta'limni tashkil etish turlari va shakllari. Ta'limni tashkil etishning asosiy shakllari.

Ta'lim turlari: illyustrativ (an'anaviy); problemali (muammoli); programmashtirilgan ta'lim.

Ta'limni tashkil etish haqida tushuncha, uning xilma-xil turlari. Ta'lim maqsadi va o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'quv ishlarining turli shakllaridan foydalanish. Ta'limni tashkil etishning an'anaviy shakli. Dars tiplari va tuzilishi. Hozirgi zamonda dars va darslarni modernizatsiyalash yo'llari. Darsda o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil qilishning yalpi, guruhli va yakka tartibdagi shakllarini uyg'unlashtirish. Ta'limni tashkil etishning noan'anaviy shakllari; o'quv dialogi, munozara, didaktik (ishbop, rolli) o'yinlar, trening, press-konferensiya, o'tkir zehnlilar klubi, musobaqa darslari, auksion, "mo'jizalar maydoni", "tergovni bilimdonlar olib boradi", bayt-barak va boshqalar.

Ma'ruza va seminar mashg'ulotlari, konsultatsiyalar, ekskursiyalar, praktikumlar, konferensiyalar.

O'quvchilarning uy vazifalari, uni tashkil etish mazmuni va metodlari. Ta'lim shakllarini rivojlantirish istiqboli.

O'quv ishlarini tashkil etishning darsdan tashqari shakllari: fan to'garaklari, ilmiy jamiyatlar, olimpiadalar va boshqalar.

O'qituvchi faoliyatida, o'quv ishlari turli shakllarining o'zaro aloqadorligi.

Ta'limda innovatsion jarayonlar

"Innovatsion metod" tushunchasi. O'quv jarayonini tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Interaktiv ta'lim va uning o'ziga hosliklari. Interaktiv ta'lim metodlari tasnifi. Ta'lim strategiyalari. Grafik organayzerlar.

Interaktiv metodlarni turkumlash. Fanlarni o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish. Interaktiv darsni tashkil qilishga qo'yiladigan talablar. Interaktiv dars shakllari, metodlari va vositalari. Interaktiv dars va o'qituvchi faoliyati. Ta'lim jarayonida interaktiv metodlarni qo'llash metodikasi.

Tarbiya texnologiyasi tushunchasi. Tarbiya texnologiyasining tarkibiy tuzilishi. Tarbiya texnologiyasi mazmuni. Tarbiya texnologiyalarini modellashtrish. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish bosqichlari. Tarbiya texnologiyalarini qo'llashda pedagogik vositalardan foydalanish. Hamkorlik pedagogikasi. Insonparvarlik texnologiyasi. Tarbiyaviy texnologiyalar treningi.

Pedagogika tarixi fan va o'quv predmeti sifatida.

Uning maqsad va vazifalari. Pedagogika tarixi fan va o'quv predmeti sifatida. O'rganiladigan predmetning maqsadi va vazifalari. Uning moddiy va ma'naviy taraqqiyot bilan bog'liqligi. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A. Karimov ta'lim-tarbiya jarayonida ajdodlar merosidan samarali foydalanishning tarbiyaviy ahamiyati haqida. Pedagogika tarixini davrlashtirish muammolari.

Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.

Eng qadimgi yodgorliklarda inson tarbiyasiga oid fikrlar. Qadimgi davrlarda tarbiyaning kelib chiqishi va uning kishilarning mehnat faoliyati bilan bog'liqligi. Ibtidoiy odamlar hayotida tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari. Folklor namunalarida og'zaki ta'lim usullarining ifodalanishi. Qadimgi afsonalar, qo'shiqlar, "O'gitnoma"larda axloq-odob, ta'lim-tarbiyaga oid masalalarning ifodalanishi. Qadimgi davlatlar So'g'diyona, Baqtriya va Xorazmda ta'im-tarbiyaning rivojlanishi. Mazkur davlatlarda pedagogik fikrlarning paydo bo'lishi.

Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalari. "Avesto" - eng qadimgi ma'rifiy yodgorlik namunasi. Qadimgi "Avesto", xorazm, so'g'd, uyg'ur, turkiy-run yozuvlarining ta'lim-tarbiyani rivojlantirishdagi o'rni. O'rxun-Enasoy obidalari, ularning ma'rifiy ahamiyati. Kultegin, Bilga hoqon, Tunyuquq bitiklarida ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari. Turkiy xalqlarning dastlabki savod maktablari.

Somoniylar davlatida yoshlarga harbiy-jismoniy tarbiya berish. "Oyinnoma" - harbiy-jismoniy ta'lim-tarbiyaga oid dastlabki didaktik asar sifatida.

VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikr taraqqiyoti.

Islom dini yoyilishining ta'lim-tarbiyaga ta'siri. Musulmon maktablarida ta'lim-tarbiya mazmuni. Arab tilining savdo va madaniy aloqalar tiliga aylanishi.

Qur'onning muqaddas falsafiy-axloqiy asar sifatida o'rganilishi.

G'azzoliy - islom falsafasi va pedagogikasining asoschisi sifatida. "Kimyoi saodat" asari va uning tarbiya taraqqiyotidagi o'rni. Masjidlar va ular huzuridagi maktablarda ta'lim-tarbiya. Savod chiqarish uslubiyoti. "Chor kitob" va "Xaftiyak" - dastlabki savod darsliklari sifatida.

Hadis ilmining paydo bo'lishi. Imom Ismoil al-Buxoriy, at-Termiziy va boshqa muhaddislarning hadis ilmini yaratishdagi xizmatlari. Imom al-Buxoriyning "As-sahih", "Al-adab al-mufrad" asarlarining inson ma'naviy kamolotining tarkib topishidagi o'rni.

Sharq Uygʻonish davri va unda taʼlim-tarbiyaning taraqqiy etishi. Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning umumpedagogik hamda didaktik gʻoyalari.

Mahmud Qoshgʻariy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Ahmad Yugnakiylarning taʼlimiy-axloqiy qarashlari. Mahmud Qoshgʻariy va uning "Devoni lugʻatit turk" asari. Yusuf Xos Hojibning "Qutadgʻu biligʻi" taʼlim-tarbiyaga oid birinchi asar sifatida. Kaykovusning "Qobusnoma" asari. Asarning pedagogik fikr taraqqiyotida tutgan oʻrni.

Ahmad Yugnakiy va uning "Hibbat ul-haqoyiq" asari.

Hunar oʻrganishga doir risolalar haqida.

Ahmad Yassaviy "Hikmatlar"ining axloqiy-maʼrifiy ahamiyati. Taʼlimiy-axloqiy asarlarning tarjima qilinishi.

Shayx Saʼdiyning yirik axloqiy-falsafiy asari "Guliston"ning shaxs kamolotini tarkib toptirishdagi oʻrni.

XIV- XVI asrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.

XIV- XVI asrlarda Movarounnahrda taʼlim-tarbiya va pedagogik fikrlar. Ijtimoiy hayotning tarbiya, taʼlim va pedagogik fikr taraqqiyotiga taʼsiri. Ilm-fan, taʼlim-tarbiyaning ravnaq topa borishi.

Movarounnahrda Amir Temurning markazlashgan mahalliy davlatining paydo boʻlishi va uning ilm-maʼrifatning taraqqiy etishidagi roli.

Maktab va madrasalarda taʼlim-tarbiya xususiyatlari.

Tabiiy fanlarni oʻqitishning rivojlanishi. Ulugʻbekning ilm-maʼrifat sohasidagi xizmatlari va taʼlim-tarbiya tizimi. Zahiriddin Muhammad Boburning ilm-maʼrifat, taʼlim-tarbiya sohasidagi xizmatlari.

Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Davoniy, Husayn Voiz Koshifiylarning taʼlimiy-axloqiy merosi. Navoiyning "Hayrat ul-abror", "Mahbub ul-qulub" asarlari. Navoiyning maktab va madrasalarni rivojlantirishdagi faoliyati. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning axloqiy qarashlari. Jomiyning "Tuhfatul ahror", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarlarining shaxs kamolotidagi ahamiyati.

Davoniyning axloqiy qarashlari. "Axloqi Jaloliy" asarining pedagogik fikr taraqqiyotida tutgan oʻrni.

Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy qarashlari. "Futuvvatnomai Sultoni" asari va uning axloqiy tarbiyada tutgan oʻrni.

XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.

XVII- XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmida Buxoro, Qoʻqon va Xiva xonliklarida ilm-fan taraqqiyoti. Xonliklarda masjid-madrasalarning bunyodga kelishi.

Madrasalarda "Qurʻon", "Tafsir", "Odob as-solihin", "Sabot ul-ojizin", "Kimyoi saodat", "Hadis", "Shamoyil ul-nabi", "Hikmat ul-ayn"larning oʻrganilishi. Qoʻqon va boshqa xonliklarda qizlar maktablari.

Jahon Otin Uvaysiy va uning qizlar maktabi. Muhammad Sodiq Qoshgʻariy va uning "Odob as-solihin" asari. Kaykovusning "Qobusnoma", Saʼdiyning "Guliston" kabi maʼrifiy asarlarining turkiy tilga tarjima qilinishi.

Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning "Odob as-solihin" asarida odob-axloq masalalari.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida tarbiya va pedagogik fikrlar. Turkiston o'lkasida islom-diniy tarbiyaviy muassasalarning an'anaviy tizimi. Turkistonda chorizm maktab siyosatining boshlanishi. Musulmon maktablariga bo'lgan salbiy munosabat.

Turkiston o'lkasida pedagogik fikrlarning paydo bo'lishi. Siddiqiy, Shakuriy, Avloniy, Behbudiy va boshqalarning maktab va maorifning rivojlantirishdagi xizmatlari.

Turkistonda jadidchilik harakati. Yangi usul maktablarining paydo bo'lishi. I.Gaspirali faoliyati. Munavvar Qori, Avloniy, Shakuriy, Behbudiylarning yangi usul maktablarini tashkil etish borasidagi faoliyati. Said Rasul Said Azizovning "Ustodi avval" darsligi.

Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida ta'lim-tarbiya tizimi. Fitrat faoliyati va milliy pedagogik merosi.

1917-1990 yillarda O'zbekistonda maktab va pedagogika fani. 1917 yilda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilingunga qadar bo'lgan davrda O'zbekistonda xalq ta'limi va pedagogika fanida turg'unlik. 70 yil davomida xalq ta'limida adolatsiz milliy siyosatning amalga oshirilishi.

Xalq maorifi sohasida maktab darsliklari va o'quv qo'llanmalarining yaratilishi. Ta'lim-tarbiya jarayonining mustabid tuzum maqsadiga muvofiq tashkil etilishi va uning salbiy oqibatlari.

O'zbekiston ma'rifatparvarlari Shakuriy, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat va boshqalarning ilmiy-pedagogik merosining o'rganilishi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi va pedagogik fikr taraqqiyoti.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning e'lon qilinishi va ta'lim tizimidagi islohotlar. Milliy maktabni tashkil etish muammolari. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi".

Pedagogik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari. O'zbek xalqining ma'rifiy qadriyatlaridan ta'lim-tarbiyada foydalanish.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A. Karimov ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar va barkamol avlod tarbiyasi haqida. Birinchi prezident I.A. Karimov asarlarida barkamol avlod tarbiyasi va ta'lim-tarbiyani isloh etish g'oyalari.

Jahon pedagogika fani rivojlanishi tarixining bayoni.

Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida ta'lim-tarbiya. Qadimgi Sharq davlatlarida va Yunonistonda pedagogik fikrlarning paydo bo'lishi.

Qadimgi Yunoniston (Sparta, Afina) davlatlarida tarbiya va ta'lim tizimi. Qadimgi yunon faylasuflari (Suqrot, Aflotun, Arastu va Demokrit) ta'limotida tarbiya masalalari.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ta'lim-tarbiya. Ya.A. Komenskiyning pedagogik tizimi. Uning pedagogika fani taraqqiyotidagi ahamiyati.

Rus pedagog olimlarining pedagogik g'oyalari. K.D. Ushinskiyning pedagogik merosi. XIX asr va XX asr boshlarida G'arbiy Yevropa, AQSh, Rossiyada pedagogik ilohotlar va uning asosiy oqimlari.

Jahon mamlakatlarida pedagogikaning fan sifatida rivojlanishi.

Hozirgi davrda jahon rivojlangan mamlakatlarida xalq ta'limi va pedagogika fani.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimi va maktablarda ta'lim-tarbiya amaliyoti.

Jahon mamlakatlaridagi zamonaviy-ijtimoiy bilimlar tizimida pedagogika fani va uning asosiy omillari.

AQSh, Yaponiya, Angliya, Turkiya, Janubiy Koreyada ta'lim va tarbiya tizimi, mazmuni va taraqqiyoti.

Elektron pedagogika asoslari

Elektron pedagogika – pedagogikaning zamonaviy tarmog'i sifatida. Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari va ularni ta'lim jarayonida qo'llashning didaktik imkoniyatlari. Axborot tizimlari, shaxsning ta'lim, tarbiyasi va rivojlanishida zamonaviy axborot texnologiyalari va tizimlari.

Dasturiy vositalarning didaktik imkoniyatlari, ekspert-o'rgatuvchi tizimlar, avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi tizimlar, foydalanuvchi va pedagogik-dasturiy vositalarning o'zaro hamkorligini tashkil etish metodlari. Pedagogik-dasturiy vositalar yaratish prinsiplari.

Ta'lim portallari. Masofaviy ta'lim. Elektron darslik. Pedagogik dasturiy vositalardan foydalanib multimediali o'quv kurslarini yaratish. Mediakompetentlik, pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini yaratish.

Pedagogik diagnostika

Pedagogik diagnostika va diagnostikalash. Pedagogik diagnostikaning mazmuni. Pedagogik diagnostika va uning ahamiyati. Pedagogik diagnostikaning predmeti, mohiyati, asosiy vazifa va kategoriyalari. Pedagogik diagnostikaning mezonlari. Pedagogik diagnostikaning asosiy prinsiplari. Pedagogik diagnostika metodlari va bosqichlari.

Pedagogik diagnostikada ta'lim oluvchilarning shaxsiy xususiyatlarini o'rganish. Tarbiyalanganlikni aniqlash mezonlari. Shaxs tarbiyalanganligini pedagogik tahlil etish. Tarbiyaviy ishlar va tadbirlarni rivojlantirish istiqboli. Tarbiya jarayonining o'qitish jarayoni bilan bog'liqligi.

Ta'lim olganlikni tashxis qilish. Ta'lim natijalarini nazorat qilish va baholash. Ta'lim natijalarini tekshirish va baholashga qo'yiladigan talablar. Nazorat turlari, shakllari va metodlari. Bilimlarning natijalarini baholashda pedagogik testlarning o'rni.

Korreksion pedagogika va inklyuziv ta'lim asoslari

Korreksion pedagogika - pedagogika fanining tarmog'i sifatida. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni va o'smirlarni o'qitish hamda tarbiyalash. Korreksion pedagogikaning tarkibiy qismlari, tuzilishi va tizimi. Korreksion pedagogikaning

asosiy vazifalari, kategoriyalari. Oila tarbiyasi. Anomal bolalar va ularni klassifikatsiyalash. Anomal bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning asosiy yo'nalishlari. Inklyuziv ta'lim va uning o'ziga xosliklari. Inklyuziv ta'limning tarixi va rivojlanishi. Inklyuziv ta'limni boshqarishning huquqiy-me'yoriy va axloqiy asoslari. Inklyuziv ta'lim prinsiplari. Inklyuziv ta'lim metodlari. Inklyuziv ta'limning kategoriyalari. Inklyuziv ta'limda pedagogning kasbiy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari. Pedagogning kasbiy kompetentligi.

Zamonaviy jamiyatda inklyuziv ta'limni rivojlantirish yo'llari.

Ta'lim menejmenti asoslari

Ta'lim menejmenti tushunchasi. "Ta'lim to'g'risidagi Qonun"da ta'lim tizimini boshqarish masalalari. Ta'lim tizimi menejmenti vazifalari. Ta'lim tizimini boshqarish prinsiplari. Ta'limni boshqarishda vakolatli davlat organlar va ularning huquqlari. Ta'lim tizimida davlat-jamoat boshqaruvi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'limni boshqarishda mahalliy vakolatli organlar. Ta'lim muassasalarining Nizomi. O'zbekiston Respublikasining "Umumiy o'rta ta'lim haqida"gi Nizomi. Umumiy o'rta ta'lim maktabi Ustavi.

Ta'lim sifatini va ta'lim xizmatlarini monitoringi. Pedagog kadrlar malakasini oshirish. Pedagog kadrlar attestatsiyasi. Kvalifikatsiya.

Maktab – pedagogik tizim sifatida

Pedagogik tizimni boshqarishning predmeti, prinsiplari va vazifalari. Maktab – pedagogik tizim va boshqarishning ob'ekti sifatida. Maktabning ichki boshqaruvi, uning tuzilishi va vazifalari. Pedagogik Kengash va uning vazifalari. Metodik Kengash va uning vazifalari. Maktab direktorining vazifalari. Rahbar madaniyati. Direktor o'rinbosarlarining vazifalari. Sinf rahbarining vazifalari. Pedagogik jamoaning o'ziga xosligi.

Pedagogik diagnostika va maktab faoliyatini tahlil qilishning mazmuni, maqsadi, turlari va vazifalari. Maktabda ichki nazorat va pedagogik faoliyatni tashkil qilish. Maktabni ichki nazorat qilish prinsiplari: tizimlilik, xolislik, harakatlilik, to'ldiruvchilik.

Pedagogik kompetentlik va kreativlik

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni asosida pedagog xodim faoliyati mazmuniga qo'yiladigan talablar. Pedagogik faoliyat mazmuni.

Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari. Pedagogik qobiliyat – pedagogik mahoratning asosi sifatida. Pedagogik qobiliyat turlari. Pedagogik qobiliyatning tayanch, etakchi va yordamchi xususiyatlari. Kommunikativ qobiliyat – pedagogik aloqa o'rnatishning asosiy vositasi. Pedagogik deontologiya. Kasbiy mas'uliyat.

Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari. Pedagogik nizolar, ularni bartaraf etish usullari. Nutq texnikasi.

Pedagogik kompetentlik. Kasbiy kompetentlik sifatleri. Pedagogik kompetensiya. Pedagogik ijodkorlik va refleksiya. Pedagogning o'z ustida ishlashi. "Kreativlik" va "pedagogik kreativlik" tushunchalarining mohiyati. Kreativlik sifatleri. Shaxs kreativligini ifodalovchi xususiyatlari. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kreativlikni shakllantirish.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 1993.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq, 2020.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
4. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonun (yangi tahriri). – Toshkent, 2015 yil 4 sentabr. Lex.uz
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: Uzbekistan, 2021. - 219 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentbrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoni. Lex.uz
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907 sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-yanvardagi "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4119-son qarori. Lex.uz
9. Barkamol avlod orzusi. - T.: Sharq, 1999.
10. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: 2005.
11. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – T.: Istiqlol, 2004.
12. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. - T.: O'qituvchi 1993.
13. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T.: Xalq merosi nashriyoti. 1993.
14. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: Xalq merosi, 1993.
15. Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-tom. -T.: Fan,1998.
16. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar. O'n besh tomlik. 13- tom. -T.: Adabiyot va san'at, 1996.
17. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. /Odob durdonalari/. -T.: O'zbekiston, 1990.
18. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-jome' as-sahih. -T.: O'zbekiston, 1991.
19. K.Xoshimov, S.Nishonova. Pedagogika tarixi. II qism. Darslik. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. T., 2005.
20. Kaykovus. Qobusnoma. T.: "Meros", 1992.
21. Qur'oni Karim. -T.: Cho'lpon, 1993.
22. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika. -T.: O'qituvchi, 2001.
23. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.: O'zbekiston, 2000.

24. O.Hasanboeva, J.Hasanboev, X.Xamidov. Pedagogika tarixi. O'quv qo'llanma T., "O'qituvchi"1997.
25. Pedagogika (prof. A.K.Minavarovning umumiy taxriri ostida). -T.: O'qituvchi, 1996.
26. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1qism. Pedagogika nazariyasi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik / M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. "Iqtisod-moliya", 2007.-380 b.
27. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. (Tuzuvchi: O.Hasanboeva)T.: "O'qituvchi", 1990.
28. Podlasny I.P. Pedagogika 1-2 t. -M.: Vldos, 1999.
29. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T.: Moliya, 2003.
30. O'zbek pedagogikasi antalogiyasi 1-2 t. (tuzuvchilar K.Hoshimov, S.Ochil. O'qituvchi, 1995-2000).
31. Farberman B. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. -T.: Fan, 2000.
32. Xasanboev J.Y. va boshqalar. Pedagogika. O'quv qo'llanma.-T., "Fan".2006.
33. Hasanboeva O., Hasanboev J.,Hamidov H. Pedagogika tarixi. -T.: G'ofur G'ulom. 2005.
34. J.Xasanboev, X.Turakulov, M.Xaydarov, O.Xasanboeva, N.Usmonov. Pedagogika fanidan izohli lug'at. T.: "Fan va texnologiya", 2009, 672 bet.
35. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig (so'zboshi muallifi B.Tuhliev) – T.:Yulduzcha, 1990.
36. Samarskiy A.A., Mixaylov A.P. Matematicheskoe modelirovanie: Idei. Metody. Primery. –M.: Nauka. Fizmatlit. 1997. –320 s.
37. Ivchenko G.I., Medvedev Yu.I. Vvedenie v matematicheskuyu statistiku: Uchebnik. M.: Izdatelstvo LKI, 2010. —600 s.
38. Abdushukurov A.A. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika. Universitet, 2010 y., 169 b.

Dasturning axborot-uslubiy ta'minoti

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.edu.uz
4. www.ziyo.edu.uz
5. www.gov.uz
6. www.ziynet.uz
7. www.istedod.uz
8. www.cer.uz

**13.00.01 -“Pedagogika nazariyasi. pedagogik ta’limotlar tarixi”
mutaxassisligi bo’yicha oliy tal’limdan keyingi ta’lim insitutiga kirish
imtihonlari uchun savollar majmuasi**

1. Yangi O‘zbekiston rivojlanishining strategiyasida ta’limga oid masalalar.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020y) va ta’lim tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari.
3. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlarida barkamol avlod ta’lim-tarbiyasi masalalari.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’lim tizimini isloh qilish haqida.
6. Barkamol shaxsni shakllantirish - tarbiyaning maqsadi sifatida.
7. Sharq mutafakkirlari barkamol inson tarbiyasi haqida.
8. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni (yangi tahrirdagi) 2020 yilda yangi tahrirda qabul qilingan.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirishga oid belgilangan vazifalarning mohiyati
10. 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida pedagogika sohasini rivojlantirishga oid vaziflarning tasnifi.
11. 2020-yil 5-oktabrdagi PQ-6079-son “Raqamli O‘zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar
12. 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida ta’lim sifatini oshirish
13. Pedagogika – ijtimoiy fan va uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni. Hozirgi sharoitda pedagogika fani oldida turgan dolzarb muommalar.
14. Abu Ali ibn Sino va Abu Rayxon Beruniylarning umumpedagogik hamda didaktik g‘oyalari.
15. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari (XI asr) ta’lim-tarbiyaga oid birinchi, ma’rifiy asar sifatida.
16. XXI asrda pedagogika fani (muammolar, yechimlar).
17. Testlar va ular ko‘llash imkoniyatlari.
18. Pedagogika fanining metodologik muammolari.
19. Ya.A. Komenskiyning “Buyuk didaktika” asarining pedagogik fikr taraqqiyotida tutgan o‘rni.

20 Ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni asosida (2020).

21 O'quvchi shaxsi tarbiya ob'ekti va sub'ekti sifatida. Shaxs rivojlanishining asosiy omillari.

22 Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-Haqoyiq" asarida ta'limiy-axloqiy firklar.

23 O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A. Karimov mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'anviy-axloqiy negizlari haqida.

24 Pedagogik tadqiqotlar yo'nalishlar va natijalar.

25 Oliy ta'lim muassasasi xodimlari attestatsiyasiga qo'yiladigan talablar.

26 Ta'lim jarayoni haqida tushuncha hamda uning ikki tomonlama xususiyati. Ta'lim jarayonida bilish faoliyatining bosqichlari: idrok qilish, fahmlab olish, tushunish va umumlashtirish, mustahkamlash va amalda qo'llash.

27 Xalk og'zaki ijodi – o'zbek xalk pedagogikasining asosi.

28 Oliy ta'lim sohasini boshqaruvining demokratik tamoyillari.

29 Davoniyning ta'limiy-axloqiy qarashlari.

30 Oliy ta'limning bakalavriat bosqichida talabaning o'zlashtirishi zarur bo'lgan majburiy fanlar bloklari.

31 Xalq pedagogikasi va uning ta'lim-tarbiyada tutgan o'rni.

32 Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida ta'limiy-axloqiy masalalar.

33 Amir Temurning Movaraunnahr ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rni.

34 Ta'lim sifati va unga ijobiy ta'sir etadigan omillar.

35 Estetik tarbiya mazmuni, maqsadi va vazifalari.

36 "Avesto"da ta'lim-tarbiya masalalari.

37 O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasida ta'lim-tarbiyaning qonuniy asoslari.

38 Dinning tarbiyaviy ahamiyati va aqidaparastlikning oldini olish.

39 A.Navoiyning ta'lim-axloqiy qarashlari.

40 Ta'lim metodlari va vositalari, haqida tushuncha hamda ularning tasnifi. Bilim, ko'nikma va malakalarni baholashda reyting tizimi.

41 Yoshlarda ijodkorlikni shakillantirish.

42 Mirzo Ulug'bekning maktab islohati.

43 Didaktika haqida tushuncha, uning maqsad va vazifalari.

44 Zamonaviy didaktik tizimlar to'g'risida tushuncha.

45 Ta'limning an'anaviy sinf-dars shakli. Ta'lim samaradorligini oshirish omillari.

46 Xusayin Voiz Koshifiyning ta'limiy-axloqiy qarashlari.

47 O'qitish vositalari va ulardan foydalanish.

48 Mehnat tarbiyasi: mazmuni, vazifasi, metodlari, kasbga yo'llash usullari.

49 K.D. Ushinskiyning pedagogik tizimi.

50 O'qitish sifatini nazorat qilish.

51 Reyting nazorat tizimida EXMdan foydalanish.

- 52 Ya.A. Komenskiyning “Buyuk didaktika” asari va uning pedagogika fanida tutgan o‘rni.
- 53 Tarbiya tamoyillari va metodlari.
- 54 Umuminsoniy va milliy qadriyatlar hamda ularning shaxs tarbiyasidagi o‘rni.
- 55 O‘qituvchining kasb mahorati va unga qo‘yiladigan talablar.
- 56 Turkistonda – ayollar ta’limi tizimi (Jahon Otin Uvaysiy, Dilshod Otin va Anbar Otinlarning qizlar maktabi).
- 57 Ta’lim mazmuni (O‘quv rejasi, dasturi, darslik).
- 58 Disterveg didaktikasida rivojlantiruvchi ta’lim.
- 59 Boburning “Boburnoma” asarining ilm-fan taraqqiyotida tutgan o‘rni.
- 60 Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlari.
- 61 Ta’lim metodlari va uning tavsifi. Ta’lim metodlarini takominlashtirish muammolari.
- 62 Naqshbandiya ta’limoti va uning ta’lim-tarbiyadagi ahamiyati.
- 63 Shaxs va maktab jamoasi. Shaxsni jamoada tarbiyalash.
- 64 Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar.
- 65 Abdurahmon Jomiyning ma’rifiy-axloqiy qarashlari.
- 66 O‘quvchilarning ijtimoiy funksiyalari. Uning tarixiy rivojlanishi.
- 67 Sa’diyning “Guliston” asarida ma’naviy-axloqiy tarbiya.
- 68 Mustaqillik mafkurasi va tarbiya masalalari.
- 69 Fuqoralik tarbiyasi va uning mazmuni.
- 70 Abu Rayhon Beruniyning ta’limiy-axloqiy qarashlari.
- 71 O‘quvchilarni iqtisodiy tarbiyalash. Uning mazmuni, shakl va metodlari.
- 72 Oilada bola tarbiyasi. Ibn Sino, A.Navoiy va boshqa donishmandlar oila tarbiyasi haqida. Oila an’analari tarbiya sifatida.
- 73 Al-Xorazmiy ilmiy-bilish metodlari haqida.
- 74 Maktab ichki nazorati.
- 75 Pedagogika fani taraqqiyotida milliylik va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni.
- 76 Shakuriy va Bexbudiylarning ta’lim-tarbiya tarixida tutgan o‘rni.
- 77 Ta’limni programmalashtirish va kompyuterlashtirish.
- 78 Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar va ularni tashkil etish metodikasi.
- 79 Abdulla Avloniyning yangi usul maktablari.
- 80 Ta’limni tashkil qilishning noan’anaviy shakllari.
- 81 O‘rxun-Enasoy yodgorliklarida ta’lim-tarbiya masalalari.
- 82 Hozirgi zamon maktablarida ta’lim mazmuni. Ta’lim mazmunini belgilovchi hujjatlarga tasnif. Davlat o‘quv rejasi, o‘quv dasturi, darslik va boshqalar.
- 83 Hadis ilmining paydo bo‘lishi va rivojlanishi.
- 84 Kaykovusning “Qobusnoma” asarida ma’rifiy-axloqiy masalalar.
- 85 O‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilarning rivojlanishi va tarbiyalash xususiyatlari.

- 86 Qiyosiy pedagogikaning predmeti, maqsad va vazifalari.
- 87 Mirzo Ulug‘bekning maktab islohoti.
- 88 Yosh avlod tarbiyasida maktab, oila va mahallaning hamkorligi.
- 89 “Avesto”da ta’lim-tarbiya masalalari.
- 90 Davlat ta’lim standartlari va uni hayotga tadbiq etish muammolari.
- 91 Ta’limning amaliy usullari.
- 92 Alisher Navoiyning ta’limiy-axloqiy qarashlari.

Fakultet dekani

Kafedra mudiri



J.E.Usarov

M.Q.Raxmanova